



XALQ DEPUTATLARI SAMARQAND TUMANI K E N G A S H I

Samarqand t. 140300, Gulobod qo'rg'oni, 1-uy. Tel: (66) 612-51-89

2022 - yil 20 - aprel

VI-59-63-7-103-K/22

Samarqand tuman hokimligi

Samarqand tumani mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida

Tumandagi tashkilotlarning murojaatlari hamda O'zbekiston Respublikasi "Budget kodeksi"ning 126-moddasiga muvofiq, tuman mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidagi erkin qoldiq mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun qilinadigan xarajatlar bo'yicha sessiya qatnashchilarining fikr va munosabatlarini hisobga olgan holda, Xalq deputatlari Samarqand tumani Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik to'qqizinchi sessiyasi.

QAROR QILADI:

1. Samarqand tumani mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidagi erkin qoldiq mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risidagi tuman hokimining takliflari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidagi erkin qoldiq mablag'larini sarflash bo'yicha tuman hokimining 2022-yil 18-apreldagi "Tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi 55-7-103-F/22-sonli farmoyishi tasdiqlansin.
3. Tuman mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismidagi erkin qoldiq mablag'lari hisobidan sarflanish

miqdorlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimligi moliya bo‘limi (Sh.Voseyev)ga budgetga tegishli o‘zgartirish kiritish, tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (I.Elboyev)ga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda to‘lovlarini amalga oshirish va ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifalari topshirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Xusanov) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari F.Ganiyev zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



A.Umarov

Xalq deputatlari Samarqand tuman
Kengashining
2022 yil 20 apreldagi
VI-59-63-7-103-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Tuman mahalliy budgetining 2022-yil I chorak daromadlar rejasining
oshirib bajarilgan qismidagi erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan
sarflanish miqdorlari to‘g’risida ma’lumot**

T/P	Xarajat turlari	Summasi	Jami	457 262,0
			I	
1			Tuman hokimligi xodimlariga yuklatilgan vazifa va topshiriqlar hajmi ko‘pligini inobatga olib, ularning samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2022-yil 19-apreldagi 7-sonli bildirgining ilovasiga muvofiq 2022-yil II- chorakda xodimlarga ustama belgilash bo‘yicha	324 000,0
2	Tuman hokimligi internet tizimi xarajatlari uchun	81 850,0		
3	Tumandagi "Nuroniyalar maskani" majmuasida doimiy ishlovchi farrosh va qorovul shtat birliklarini joriy etish uchun	15 412,0		
4	"E-qaror" mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni ishlab chiqish, kelishish va ro‘yxatdan o’tkazishning yagona elektron tizimidan foydalanish uchun	36 000,0		